
Keksalarga hurmat – ulug' saodat

Rishton tumanida keksalar doimo e'zozda

👤 Rishton tumanida “Keksalar haftaligi” doirasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Kexsa avlod vakillariga alohida e'zoz va e'tibor ko'rsatilayotir. Nuroniyalar tayanch tog'larimiz, ustunlarimizdir. Ular maslahat bersa, uzoqni ko'zlaydi, duosi orqali el-yurt tinchligi, mehr-muhabbati, dasturxon qut-barakasi, yoshlar kamolotini niyat qiladi. Qaerda keksalar bo'lsa, ularga e'tibor bo'lsa, shu joyda fayz bor, baraka bor. Shu bois ham mamlakatimizda ularni ijtimoiy himoya qilish, turmush sharoitini yaxshilash va mazmunli hayot kechirishlarini ta'minlashga muhim e'tibor qaratilmoqda.

☐ Rishton tumanida “Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos ezgu fazilat” shiori ostidagi “Keksalar haftaligi” doirasida turli tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Bugun tumanimizdagi "Madaniyat uyi"da keksalar va nuroniylar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda tuman hokimi, sektor rahbarlari, nuroniy otaxon va onaxonlar ishtirok etishdi.

???? - Dunyoning boshqa xalqlariga qaraganda o'zbekchilikda keksalarga alohida ehtirom ko'rsatiladi. Har bir ezgu ish, bunyodkorlik va obodonchilik tadbirlari, mahalladagi to'yu-ma'rakalar ularning duosi, maslahati, ko'rsatmasi bilan boshlanadi, - deydi tuman hokimi. - Mamlakatimizda kexsa avlod vakillarining hayot darajasini yaxshilash, salomatligini asrash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz tomonidan yoshi ulug' insonlarga qaratilayotgan e'tibor, bu borada qabul qilinayotgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar endilikda qog'ozda emas, amalda aks etib, kexsa avlod vakillarining jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni va ishtirokini yanada mustahkamlamoqda.

???? - Farzandlarimiz hayotdagi yo'llarini topib, o'zlaridan tinib-tinchib ketgan chog'ida ham ularni o'ylayveradigan mehribon xalqimiz. Zero, bolajonligimiz ham ota meros qadriyatlarimizdan. Ammo keksalikning ham o'z zavqi, o'z gashti bo'lishi kerak ekan. Faxr bilan aytish mumkinki, biz har bir ishda kattalar maslagiga tayanadigan, kichik bir oilaviy ziyofatdan tortib, to'ylargacha davralarimiz to'rini nuroniylarimizsiz tasavvur eta olmaydigan millat vakillarimiz. Shunday ekan, keksalarga bo'lgan cheksiz hurmatimiz, ular oldidagi bitmas-tuganmas burchimiz bizni ular duosini olishga, ularni rozi qilishga undayveradi. Buning yana bir hikmati shundaki, farzandlarimiz ham o'z-o'zidan bu an'ananing davomchilariga aylanib, keksalar duosining oltindan qimmat ekanini anglab borishadi. Shuning uchun ham elimiz, yurtimiz keksalar duosi bilan yashnayveradi, - deydi tuman Nuroniyalar kengashi raisi T. Abdurahmonov.

???? - Tumanimizda 22 mingga yaqin keksalarimiz umrguzaronlik qilayotgan bo'lib, xayrli ishlarda ular doimo faol, - deydi tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Xudoyorxon Xojixonov. - Mazkur haftalik doirasida mahallalarimizdagi nuroniy otaxon-onaxonlarimizga yana bir bor ehtirom ko'rsatishni maqsad qilganmiz. Keksalarni e'zozlashdek xalqimizga xos qadriyat azaldan millatni jipslashtirish, odamlar orasida mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bois ham bugun ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, e'zozlanmoqda.

???? Tadbir davomida tuman madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan tashkil etilgan kontsert dasturi nuroniylarimiz ko'nglini tog'dek ko'tardi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-10-08 14:06:42